BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING QARORI

201200, Peshku tumani, Amir Temur ko‘chasi, 3-uy. Tel: (65) 35-31- 6-31, faks: (65) 35-31-570, peshku.t@exat.uz

2021 - yil 17 - dekabr 249-2-39-Q/21 Peshku tumani hokimligi

Peshku tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Peshku tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Peshku tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Peshku tuman Ichki ishlar bo‘limi (N.Boltayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (Z.Bozorov) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Hamroyev) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l

belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Peshku ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining “Peshku.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Bozorov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **В.Каххоров**

Пешку туман ҳокимининг
2021 йил 17 декабрдаги
249-2-39-Q/21-сон қарорига
1-илова
Peshku tuman

hokimi

qarorining ilovasi

Peshku tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi bo`yicha umumiy foydalanishdagi davlat va mahaliy ahamiyatidagi avtomobil yo`llarida o`rnatilgan yo`l belgilari bo`yicha 2021 yil xolatiga bo`lgan

R O` Y X A T I

№	Avtoyo`llarning raqami va nomi		yo`l qismi km-km	jami belgi	ogohlantiruvchi	imtiyoz	Taqiq lovchi	Buyu ruvchi	axborot beruvchi	servis	Qo`shimcha belgi.
1	4r48	Zarafshonning trakti	306-326	272	112	67	2	15	65	6	5
2	4r66	Azizobod.k Vobkent.sh Aliyor.k XujaPorsa.k A-380 "Guzor-Buxoro Nukus-Beyneu" a/yuli	33-75	178	54	51	5	8	60		
3	4r68	GalaOsiyo.sh Romitan.sh A-380 "Guzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" a/y a) Peshku kishlogiga	3-8	75	6	34	5	1	26		4
4	4k159	Yangibozor k Kalmok k .Yovuzkor k Shurobot	0-6.	44	26	12		3	3		
5	4k168	4r48 yulidan shaxobchalar a) Peshku tuman markazig	0-2.	64	15	20	7	4	14		4
6	4k207	Afshona k.Peshku.k Chukrak	0-10	73	33	22	2		16		
7	4k157	Beklik.k Xovlinav.k Maxalashera k Chukurak.k Shuriston.k Iskogare.k Xulbor.k Boboxuja k Shovare.k Zandane.k Kala.k Kushchi.k Kurgon k Obigarm .k Xujayobon .	10-37.	172	72	44	4		50		2
8	4k162	4r48 a/y -Kumshagal koni Bogi Mirshikor k Shaxobcha	0-12. 0-2	50	25	7	2		10		6
9	4k188	4k162 a/y (12km) Zandane.k Karakata temir yul bekati-Zarafshon.sh	0-7	2	2						
10	4k165	ABS Xujazafaron	0-11.	28	14	8	2		4		
11	4k166	Peshku Niyozxuja Temirxuja	0-4.	21	9	5	2		5		
12	4n156	Romitan sh.Attaron.k Avdane k Dedaroz k v)Shaxobcha Kurgontepa k g) Shaxobcha Talisarof k	7-16. 0-3. 0-2.	80	28	26	4		19		3
13	4n180	4r66 a/y Bogimuso j\x.	0-3	4	4						
14	4n210	Navbaxor. K Kuchkalo . K	0-8	7	6	1			1		
15	4n211	Yangigul. K Makadid k Avdane Avshona k.	0-7	12	8	1			1		
16	4n212	Yangibozor.k Valfajir .k Chorabot. K Peshku k	0-10	15	13	2					
17	4n215	Mutfare.k Arabxona.k Ubeksarob	0-4	3	3						
18	4n216	Yangibozor. K Bogimuso j.x 4k159 a/y	0-8	2		1			1		
19	4n199	Arabxona k. Maxalla	0-5	18	9	2			3		4
20	4n201	Arabxona. K Ofan a) Shaxobcha Ofandar k	0-4 0-1	3		3					
21	4n202	Zandane k Kurgon k	0-4	6	6						
22	4n204	Talisobun.k Shovare.k Boboxuja	0-13	7	7						

23	4n189	Kudrashex.k Shimoliy .kalektor	0-8.	40	22	11		2	5		
24	4n190	Saidmurodxur Denav Obitxuja	0-8	32	10	12	2		4		4
25	4n191	Ishkon Kushchi Zaxkash 4k165 a.y	0-12	46	27	3	2	1	13		
26	4n200	4r48 Degdovon k Chakalon k Kate.k a) Shaxobcha Chakalon k b) Shaxobcha Xuram k	0-7 0-1. 0-2	45	29	7			9		
27	4n208	Kulbaxti.k Susana. k Ishkon.k Shavgon.k 4k165 a.y	0-7	10	10						
28	4n209	Kushchi 4K165 a/y	0-5	14	14						
		jami:		**1323**	**564**	**339**	**39**	**34**	**309**	**6**	**32**

Peshku TYFUK bosh muhandisi:- **R.Raxmatov**